EPSON
EXCEED YOUR VISION

Tarmoqqa oid qo'llanma

NPD5040-01 UZ

Mundarija

Kirish

Eslatmalar. 3
Bu qo‘llanma haqida. 3
Diqqat, Muhim va Eslatma. 3
Operatsion tizim versiyalari. 3
Tarmoq asoslari. 4
Wi-Fi (simsiz) tarmoq. 4
Ethernet (simli) tarmoq. 6

Mahsulotdan tarmoqda foydalanish

Ulanish usulini o‘zgartirish. 8
Tarmoq qurilmalaridan. 8
Windows. 8
Mac OS X. 11
Smartfon yoki planshet (iOS/Android). 11
Mahsulotni Wi-Fi tarmoqqa qo‘lda ulash. 12
Wi-Fi sozlash yordamchisi. 12
Wi-Fi Protected Setup (WPS). 13
Bevosita aloqa. 13
Wi-Fi Direct. 14
Maxsus rejim. 16

Nosozliklarni bartaraf etish

Tarmoq muammolarni hal qilishga oid maslahatlar. 22
Tarmoq aloqasini tekshirish hisobotini chop etish. 22
Tarmoq holatini ko‘rsatish va tarmoq holati varag‘ini chiqarish. 22
Wi-Fi sozlamalarini o‘chirish va boshidan boshlash. 23
Mahsulot mikrodasturini yangilash. 23
Aloqani Ping buyrug‘i bilan tekshirish. 23
Sozlash muammolari. 25
Wi-Fi bilan ulanish. 25
Wi-Fi Direct bilan ulanish. 26
Ethernet’ga ulanish. 27
Wi-Fi yoki Ethernet’ga ulanish. 28
Chop etishda muammolar. 29
Wi-Fi’ga ulangan kompyuter. 29
Ethernet’ga ulangan kompyuter. 29
Wi-Fi yoki Ethernet’ga ulangan kompyuter 30
Smartfon yoki planshet. 30
Skanlashda muammolar. 30
Wi-Fi yoki Ethernet’ga ulanish. 30
Operatsion tizimga bog‘liq muammo. 31
IPv4/IPv6 funksiya jadvali. 31
Mac OS X. 32
iOS. 33
Android. 34
Dasturiy ta’minot muammolari. 34
EpsonNet Print bilan chop etishda dial-up (telefon orqali) ulanish dialogi chiqmoqda 34
Epson dasturiy ta’minotini blokdan chiqarish. 34
Boshqa muammolar. 35
Mahsulot tarmoq xizmatlarini sozlay olmayapti yoki to‘satdan tarmoq xizmatlarini ishlata olmay qoldi. 35

Tarmoq xususiyatlari uchun mualliflik huquqlari va litsenziyalar

Mualliflik huquqlari, savdo belgilari va litsenziyalar. 36
Info-ZIP copyright and license. 36
OCHIQ KODLI DASTURIY TA’MINOT LITSENZIYASI. 37

Kirish

Eslatmalar

Bu qo‘llanma haqida

Ushbu Tarmoqqa oid qo'llanma tarmoq funksiyalari mavjud mahsulotlar uchun umumiy qo‘llanmadir. Bu qo‘llanmadan foydalanyotganda quyidagilarga e’tibor bering.

- ❏ Mavjud funksiya va qurilmalar, masalan, LCD ekran, Wi-Fi/Ethernet funksiyalari va skaner funksiyalari mahsulotga qarab farq qilishi mumkin.
- ❏ Ushbu qo‘llanmada ishlatilgan LCD ekran va dastur rasmlari umumiy misollardir. Menyular, tugma nomlari va ekran rasmlari mahsulotga qarab farq qilishi mumkin.
- ❏ Ushbu qo‘llanma tarkibi va mahsulot xarakteristikasi bildirilmagan holda o‘zgartirilishi mumkin.

Diqqat, Muhim va Eslatma

Bu qo‘llanmada Diqqat, Muhim va Eslatma qismlari quyidagicha ko‘rsatiladi va bunday ma’noni bildiradi.

> ***Diqqat***
> *odamga shikast yetmasligi uchun ehtiyot bo‘lib amal qilish kerak.*

> ***Muhim***
> *qurilmaga zarar yetmasligi uchun rioya qilish kerak.*

> ***Eslatma***
> *mahsulotni ishlatishga oid foydali maslahatlar va cheklovlardan iborat.*

Operatsion tizim versiyalari

Bu qo‘llanmada quyidagi qisqartmalar ishlatilgan.

- ❏ Windows 8.1 degani Windows 8.1 va Windows 8.1 Pro tizimlarini bildiradi.
- ❏ Windows 8 degani Windows 8 va Windows 8 Pro tizimlarini bildiradi.
- ❏ Windows 7 degani Windows 7 Home Basic, Windows 7 Home Premium, Windows 7 Professional va Windows 7 Ultimate tizimlarini bildiradi.
- ❏ Windows Vista degani Windows Vista Home Basic Edition, Windows Vista Home Premium Edition, Windows Vista Business Edition, Windows Vista Enterprise Edition va Windows Vista Ultimate Edition tizimlarini bildiradi.

- Windows XP degani Windows XP Home Edition, Windows XP Professional x64 Edition va Windows XP Professional tizimlarini bildiradi.
- Mac OS X v10.9.x degani OS X Mavericks va Mac OS X v10.8.x degani OS X Mountain Lion tizimlarini bildiradi. Bundan tashqari, Mac OS X degani Mac OS X v10.9.x, Mac OS X v10.8.x, Mac OS X v10.7.x va Mac OS X v10.6.x tizimlarini bildiradi.

Tarmoq asoslari

Bu qo‘llanmada ishlatilgan tarmoq aloqasi turlari quyidagilarni bildiradi. Mahsulotga qarab, barcha aloqa turlari ham mavjud bo‘lmasligi mumkin.

Wi-Fi (simsiz) tarmoq

Wi-Fi aloqasining uch xili bor; Infrastruktura rejimi (router yoki kirish nuqtasi orqali aloqa qilish), Wi-Fi Direct (kirish nuqtasi ishlatmasdan, qurilmalar bilan bevosita aloqa qilish), va Maxsus.

Infrastruktura rejimi (kirish nuqtasi orqali aloqa qilish)

Infrastruktura rejimida, simsiz va simli kompyuterlar tarmoq interfeysiga axborot jo‘natish uchun kirish nuqtasi (masalan, simsiz router) orqali aloqa qilishi mumkin.



a. mahsulot

b. Simsiz router (yoki kirish nuqtasi)

c. Wi-Fi interfeysi mavjud kompyuter (ichki o‘rnatilgan yoki USB/PC karta orqali o‘rnatilgan va hk.)

d. LAN porti yoki Wi-Fi interfeysi mavjud kompyuter

e. Ethernet kabeli (kompyuterni simsiz routerga bevosita ulaydigan bo‘lsangiz)

(f. Internet aloqasi)

Wi-Fi Direct (Kirish nuqtasidan foydalanmasdan aloqa qilish uchun)

Kirish nuqtasi bo‘lmagan simsiz muhitda mahsulotni Wi-Fi Direct aloqasi orqali ishlatiladi.

Agar mahsulotda Wi-Fi Direct funksiyasi mavjud bo‘lsa, uni kirish nuqtasi ishlatmasdan, simsiz rejimda ulashingiz mumkin.

Tafsilotlar uchun “Wi-Fi Direct” - 14-sahifada ni ko‘ring.

a. mahsulot (ichki o‘rnatilgan Wi-Fi Direct funksiyasi)

b. Kompyuter (Wi-Fi interfeysli) yoki Wi-Fi qurilmasi

Maxsus rejim (Kirish nuqtasidan foydalanmasdan aloqa qilish uchun)

Kirish nuqtasi (simsiz router va hk.) bo‘lmagan simsiz muhitda mahsulotni ishlatishning yana bir yo‘li bu Maxsus rejimdan foydalanishdir. Tafsilotlar uchun “Maxsus rejim” - 16-sahifada ni ko‘ring.

a. mahsulot

b. Wi-Fi interfeysi mavjud kompyuter (ichki o‘rnatilgan yoki USB/PC karta orqali o‘rnatilgan va hk.)

Ethernet (simli) tarmoq

Simli tarmoq aloqasi uchun xab/routerni Ethernet kabeli bilan mahsulotga ulang.



Kirish

Simli tarmoq uchun kerakli qurilmalar

a. mahsulot

b. Ethernet kabeli

c. Ethernet xab

d. LAN porti mavjud kompyuter

e. Router

(f. Internet aloqasi)

Mahsulotdan tarmoqda foydalanish

Bu bo‘limda mahsulotdan tarmoqda qanday foydalanish hamda Windows, Mac OS X, iOS va Android tizimli qurilmalarda mahsulotning ulanish usulini qanday o‘zgartirish haqida ma’lumot beriladi. Mahsulotni ilk bor sozlash uchun uning Boshlanish nuqtasi qo‘llanmasini ko‘ring.

Ulanish usulini o‘zgartirish

Mahsulotning ulanishini o‘zgartirish usuli unda avvaldan mavjud ulanishga bog‘liq.

- **USB, Ethernet va Wi-Fi bevosita aloqasi:**
  Keyingi bo‘limda har bir operatsion tizim uchun tavsiflarni o‘qing.

- **Wi-Fi’dan Ethernet’ga:**
  Ulanish usulini o‘zgartirishdan avval sozlamani Ethernetga o‘tkazing yoki mahsulotning boshqaruv panelidan Wi-Fi xususiyatini o‘chirib qo‘ying. Keyingi bo‘limda Windows yoki Mac OS X uchun yo‘riqnomalarni o‘qing.

Tarmoq qurilmalaridan

Windows

Mahsulotning dasturiy ta’minot diski yordamida sozlash

Mahsulotni Windows kompyuterida ishlatish uchun uning dasturiy ta’minot diski yordamida sozlang. Agar mahsulotni ikkinchi kompyuterda ishlatmoqchi bo‘lsangiz yoki uni USB ulanishdan tarmoq ulanishiga o‘zgartirmoqchi bo‘lsangiz ham dasturiy ta’minot diskidan foydalanishingiz mumkin.

Kompyuteringizda CD/DVD drayv yo‘q bo‘lsa, o‘rnatish dasturini Epson’ning mintaqangiz uchun mo‘ljallangan veb-saytidan yuklab olishingiz mumkin.

Eslatma:

- ❏ *Kompyuterni sozlashni boshlashdan avval router, simsiz adapter yoki xab kabi tarmoq qurilmalaringiz to'g'ri ishlayotganiga amin bo'ling va mahsulotdan xotira kartasini olib tashlang.*
- ❏ *OT yoki ilovada xavfsizlik ogohlantirishi chiqsa, fayrvoldan mustasno qilish uchun **Unblock (Blokdan chiqarish)** yoki **Allow (Ruxsat berish)**ni tanlang.*
  *Xavfsizlik dasturi ekranida **Bloklashni davom ettirish**, **Bloklash** yoki shu kabi buyruqlarni tanlamang. Ishlatilgan xavfsizlik dasturiga qarab, yuqoridagi amallardan so'ng aloqa o'rnatilmasligi mumkin. Bu holda xavfsizlik dasturidan vaqtinchalik chiqib turing va mahsulot dasturiy ta'minotini ishga tushiring.*



1 Mahsulotni yoqing va Wi-Fi/Ethernet odatdagidek ishlayotganiga ishonch hosil qiling.

2 Dasturiy ta'minot diskini CD-ROM/DVD drayviga kiriting.

> ***Eslatma:***
> *Windows tizimida o'rnatish oynasi avtomatik tarzda ochilmasa, **Computer (Kompyuter)** (yoki **My Computer (Mening kompyuterim)**) da disk ikoniga ikki marta bosing.*

3 Ekrandagi yo'l-yo'riqlarga amal qiling.

WSD orqali sozlash (Windows 8.1/8/7/Vista uchun)

Bu mahsulot Web Services on Devices (Qurilmalarda veb xizmatlari) (WSD) bilan ishlaydi. Mahsulot ulangan tarmoqqa ikkinchi kompyuter qo'shmoqchi bo'lganingizda yoki bir vaqtning o'zida birnechta kompyuterni sozlamoqchi bo'lganingizda WSD xususiyatining foydasi tegadi.

Eslatma:

- ❏ *Printer/skanerni WSD orqali sozlash uchun kompyuter bilan mahsulot tarmoqqa ulangan bo'lishi lozim. Mahsulotning boshqaruv panelidan tarmoq aloqasini o'rnatishga oid tafsilotlar uchun "Mahsulotni Wi-Fi tarmoqqa qo'lda ulash" - 12-sahifada ni ko'ring.*
- ❏ *Printer/skanerni WSD orqali sozlashdan avval drayver o'rnatilgan bo'lishi lozim.*

Mahsulotdan tarmoqda foydalanish

1 Mahsulot yoqilganligini ko‘ring.

> ***Eslatma:***
> *Windows 8.1/8 tizimi WSD drayverini avtomatik tarzda o‘rnatgani sababli, 2-5 bosqichlarni tashlab ketishingiz mumkin.*

2 Windows 7 uchun: **Start (Ishga tushirmoq)**, **Computer (Kompyuter)**, **Network (Tarmoq)** ni bosing.

Windows Vista uchun: **Start (Ishga tushirmoq)** va **Network (Tarmoq)** ni bosing.

3 Mahsulot tavirchasiga sichqonning o‘ng tugmasini bosib, **Install (O‘rnatmoq)** ni tanlang.

User Account Control (Foydalanuvchi hisob qaydnomalari nazorati) dialog qutisida **Continue (Davom etmoq)** ni bosing.

> ***Eslatma:***
> - *Ikon tarmoqdagi mahsulot nomini ko‘rsatadi (mas., EPSONXXXXXX (mahsulot nomi)). Mahsulot nomini uning boshqaruv paneli yoki tarmoq holati varag‘idan tekshirib olish mumkin. Boshqaruv panelidan tekshirish yoki tarmoq holati varag‘ini chiqarishga oid tafsilotlar uchun "Tarmoq holatini ko‘rsatish va tarmoq holati varag‘ini chiqarish" - 22-sahifada ni ko‘ring.*
> - *Agar **Install (O‘rnatmoq)** o‘rniga **Uninstall (Olib tashlamoq)** ko‘rsatilsa **Uninstall (Olib tashlamoq)** ni bir marta bosib, qayta urining (Windows 7 va Vista uchun).*

4 **Your devices are ready to use (Qurilmalaringiz ishlatishga tayyor)** (**Your device is ready to use (Qurilmangiz ishlatishga tayyor))** ni bosing.

> ***Eslatma:***
> *Windows 7 foydalanuvchilariga eslatma: 4- va 5-bosqichlarni tashlab keting.*

5 Ekranni tekshirib, **Close (Yopmoq)** ni bosing.

6 Windows 8 uchun: **Desktop (Ishchi stol)** > **Settings (Parametrlar)** o‘tish tugmasi > **Control Panel (Boshqaruv paneli)** ni bosing, keyin **View devices and printers (Qurilmalar va printerlarni ko‘rib chiqish)** ni tanlang.
Windows 7 uchun: **Start (Ishga tushirmoq)** ni bosing, keyin **Devices and Printers (Qurilmalar va printerlar)** ni bosing.
Windows Vista uchun: **Start (Ishga tushirmoq)** tugmasini bosib **Network (Tarmoq)** ni bosing.

> ***Windows 8 foydalanuvchilariga eslatma:***
> *Mahsulot ikonini topa olmasangiz, quyidagi bosqichlarni bajaring.*
>
> *1. **Add a device (Uskuna qo'shmoq)** ni tanlang.*
>
> *2. Mahsulotni tanlab, **Next (Keyingi)** ni tanlang.*
>
> *3. Ekrandagi yo‘l-yo‘riqlarga amal qiling.*

7 Tarmoqdagi mahsulot nomi (mas., EPSONXXXXXX (mahsulot nomi)) ko‘rsatilgan ikon qo‘shilganini tekshiring.

WSD orqali chop etish uchun mahsulotning tarmoqdagi nomini tanlang.

> ***Eslatma:***
> - ❏ *WSD orqali skaner funksiyasidan foydalanish uchun Windows 8.1/8/7/Vista tizimlarida **Windows Fax and Scan (Windows faks va skanerlash)** yoki **Paint** dasturini ishlating.*
> - ❏ *Windows 8.1/8/7/Vista da **Windows Fax and Scan (Windows faks va skanerlash)** yoki **Paint** bilan tanlangan skaner nomi mahsulotning tarmoqdagi nomi bilan bir xil.*
> - ❏ *Boshqa tijoriy dastur ishlatayotgan bo‘lsangiz, skanlash jarayonini bilish uchun uning Foydalanuvchi qo'llanmasi ni o‘qing.*

Mac OS X

Mahsulotni tarmoqqa ulash

Mac OS X tizimi uchun dasturiy ta’minotni Epson veb-saytidan yuklab oling.

> ***Eslatma:***
> - ❏ *Tarmoqni sozlasdan avval siyoh quyish va tilini tanlash kabi ilk sozlamalarni o‘rnatib oling.*
> - ❏ *Kompyuterni sozlashni boshlashdan avval router, simsiz adapter yoki xab kabi tarmoq qurilmalaringiz to‘g‘ri ishlayotganiga amin bo‘ling va mahsulotdan xotira kartasini olib tashlang.*

1 Ethernet tarmog‘iga ulamoqchi bo‘lsangiz, mahsulotni LAN kabeli orqali xabga ulang.

2 Quyidagi havolaga bosing va ekrandagi yo‘l-yo‘riqlarga amal qiling.
http://epson.sn yoki http://support.epson.net/setupnavi/

Smartfon yoki planshet (iOS/Android)

Epson iPrint dasturi smartfon yoki planshetdan (iOS/Android) simsiz tarzda mahsulotda chop etish va skanlash imkonini beradi. Mahsulot Wi-Fi tarmog‘iga ulanmagan bo‘lsa, uni boshqaruv paneli orqali Wi-Fi tarmog‘iga ulang. Qo‘lda sozlash tafsilotlari uchun “Mahsulotni Wi-Fi tarmoqqa qo‘lda ulash” - 12-sahifada ni ko‘ring.

> ***Eslatma:***
> - ❏ *Mahsulotga ulashdan avval smartfon yoki planshet tarmoqqa ulanganligini tekshiring.*
> - ❏ *Smartfon yoki planshet orqali faqatgina Ethernet funksiyasi mavjud mahsulotni ishlatmoqchi bo‘lsangiz, mahsulotni simsiz routerga (kirish nuqtasiga) LAN kabeli orqali ulang.*

Epson iPrint dasturidan foydalanish

1 Smartfon yoki planshetga "Epson iPrint" dasturini App Store (iOS) yoki Google Play (Android) saytlaridan yuklab oling.
Bundan tashqari Epson iPrint dasturini quyidagi Epson veb-saytidan yuklab olish mumkin.

http://ipr.to

2 Epson iPrintni oching va siz ishlatmoqchi bo‘lgan mahsulotni izlab, sozlang.

> ***Eslatma:***
> *Epson iPrint sozlamalari haqida ko'proq ma'lumot uchun uning Yordamini ko'ring yoki Epson Connect portal veb-saytiga tashrif buyuring.*
> *https://www.epsonconnect.com/ (Epson Connect portal sayti)*
> *http://www.epsonconnect.eu/ (faqat Yevropada)*

Mahsulotni Wi-Fi tarmoqqa qo‘lda ulash

Mahsulotni boshqaruv paneli orqali tarmoqqa ulash uchun quyidagi bosqichlarni bajaring.

> ***Eslatma:***
> ❏ *Tarmoqni sozlasdan avval siyoh quyish va tilini tanlash kabi ilk sozlamalarni o'rnatib oling.*
> ❏ *Mahsulotga ulanishdan avval Wi-Fi tarmog'i yoqilganligini tekshiring.*

Wi-Fi sozlash yordamchisi

Mahsulotda LCD ekrani bor bo‘lsa, qo‘lda sozlashni soddalashtirish uchun Wi-Fi Setup Wizard dan foydalanish mumkin. Mahsulotning LCD ekraniga Wi-Fi tarmog‘ining SSID nomi va parolini kiritish orqali sozlash mumkin. Bu xususiyat faqat LCD ekranli mahsulotlarda mavjud.

> ***Eslatma:***
> ❏ *Bu sozlama hamma mahsulotlarda ham mavjud bo'lmasligi yoki yoqilmagan bo'lishi mumkin.*
> ❏ *Wi-Fi sozlash paytida talab etiladigan tarmoq SSID nomi va parolini tekshiring. SSID nomi va parolni bilmasangiz, tarmoq ma'muridan aniqlashtiring.*

Wi-Fi Setup Wizard yordamida Wi-Fi aloqasini sozlashga oid ma’lumot uchun quyidagi havolani bosing. Bu xususiyat hamma mahsulotlarda ham mavjud bo‘lmasligi yoki yoqilmagan bo‘lishi mumkin.
html/wizard.htm

Wi-Fi Protected Setup (WPS)

Wi-Fi Protected Setup (WPS) ning ikki xili mavjud; WPS tugma usuli va WPS PIN kod usuli. Bu usullar LCD ekrani yo‘q mahsulotlarda mavjud.

Eslatma:

- *Bu sozlama hamma mahsulotlarda ham mavjud bo'lmasligi yoki yoqilmagan bo'lishi mumkin.*
- *Mahsulotni tarmoqqa ulashdan avval kirish nuqtasi WPS funksiyasiga egaligini tekshiring.*
- *Agar kirish nuqtasi (simsiz router) ikki daqiqa ichida topilmasa, xatolik xabari ko'rsatiladi. Bu holda, kirish nuqtasi ishlayotganiga ishonch hosil qiling, keyin WPS sozlamalarini qaytadan qo'ying.*
- *Kirish nuqtasining WPS funksiyasi tafsilotlari yoki nosozliklarni bartaraf etish uchun kirish nuqtasining foydalanuvchi qo'llanmasini ko'ring.*

WPS tugma

Simsiz routerda (kirish nuqtasida) WPS tugmasini bosish orqali sozlash mumkin. Avval Wi-Fi yoqilgan boshqa qurilmalarni WPS yordamida ulagan bo‘lsangiz, shu usuldan foydalaning.

WPS yordamida Wi-Fi aloqasini sozlashga oid ma’lumot uchun quyidagi havolani bosing. Bu xususiyat hamma mahsulotlarda ham mavjud bo‘lmasligi yoki yoqilmagan bo‘lishi mumkin.

html/wps_b.htm

WPS PIN kodi

Simsiz routerda (kirish nuqtasida) sakkizta raqamni kiritish orqali sozlash mumkin. Sakkizta raqam mahsulotning LCD ekranida ko‘rsatiladi yoki tarmoq holati varag‘ida chiqariladi.

WPS yordamida Wi-Fi aloqasini sozlashga oid ma’lumot uchun quyidagi havolani bosing. Bu xususiyat hamma mahsulotlarda ham mavjud bo‘lmasligi yoki yoqilmagan bo‘lishi mumkin.

html/wps_p.htm

Bevosita aloqa

Simsiz router (kirish nuqtasi) ishlatmasdan mahsulotni to‘g‘ridan-to‘gri kompyuter, smartfon yoki planshetga ulash mumkin. Mahsulot va qurilmaga qarab, quyidagi usullardan foydalanish mumkin.

Wi-Fi Direct aloqasi:
Wi-Fi Direct yoki Wi-Fi bilan ishlaydigan qurilma yordamida mahsulot bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulanish mumkin. Bu usul WPA2-PSK(AES) xavfsizlik usulidan foydalanadi, ya’ni infrastruktura rejimi bilan bir xil.
“Wi-Fi Direct” - 14-sahifada

Maxsus aloqa:
Maxsus aloqa bilan ishlaydigan qurilmalarda mahsulotga bevosita ulanish mumkin. Bu usul faqat WEP xavfsizlik usulini ishlatadi.
“Maxsus rejim” - 16-sahifada

Eslatma:
- ❏ *Bu xususiyatlar hamma mahsulotlarda ham mavjud bo'lmasligi yoki yoqilmagan bo'lishi mumkin.*
- ❏ *Windows kompyuterlarida dasturiy ta'minot diskidagi o'rnatuvchi dastur yordamida bevosita aloqani sozlash mumkin. Agar mahsulot Wi-Fi Direct bilan ishlay olsa, u Wi-Fi Direct yordamida ulanadi.*

Wi-Fi Direct

Wi-Fi Direct uchun ulanishning ikki xili mavjud; "Oddiy KN rejimi" db nomlagan kirish nuqtasi aloqa va "Wi-Fi Direct rejimi" deb nomlangan to'g'ridan-to'g'ri aloqa. Web Config oynasidagi xizmatlar sozlamasidan foydalanib, aloqa rejimini almashtirish mumkin. Web Config funksiyasidan foydalanishga oid tafsilotlar uchun mahsulotning Foydalanuvchi qo'llanmasini ko'ring.

Simple AP mode (Oddiy KN rejimi) (kirish nuqtasi aloqasi):
Bu rejimda, mahsulot kirish nuqtasi rolini o'ynaydi. Qurilmangiz Wi-Fi Direct xususiyatiga ega bo'lmasa ham, uni mahsulotga ulashingiz mumkin. Bu rejimda ishlayotganda mahsulotning odatiy SSID nomi "DIRECT-xxxxxxxx" bo'ladi (bu yerda xxxxxxxx - mahsulotning MAC manzili).

Wi-Fi Direct mode (Wi-Fi Direct rejimi) (to'g'ridan-to'g'ri aloqa):
Bu rejimda mahsulot guruh egasi yoki mijoz sifatida aniqlanib, aloqa o'rnatiladi. Qurilmangiz Wi-Fi Direct xususiyatiga ega bo'lsa, bu rejimdan foydalanishingiz mumkin.

Eslatma:
- ❏ *Mahsulot Maxsus rejimda ishlayotgan bo'lsa, Wi-Fi Direct usulidan foydalanib bo'lmaydi.*
- ❏ *Wi-Fi Direct orqali ulangan qurilmada Web Config ishlatilayotganida, Epson Connect, Google Cloud Print va boshqalarni sozlab bo'lmaydi.*
- ❏ *Wi-Fi Direct orqali ulangan qurilmada Web Config ishlatilayotganida, Epson Connect Google Cloud Print va boshqalarni sozlab bo'lmaydi.*
- ❏ *Windows tizimining Wi-Fi Direct xususiyati orqali bevosita aloqa funksiyasi qo'llab-quvatlanmaydi.*

Oddiy KN rejimi

Oddiy KN rejimida mahsulot to'rttagacha tarmoq qurilmalariga ulanishga ruxsat beradi. Tarmoq aloqasi hisobotidan nechta qurilma ulanganini tekshirish mumkin. Mahsulot infrastruktura yoki Ethernetga ulangan bo'lsa ham, bu rejimni ishlatish mumkin.

Mahsulot Oddiy KN rejimida ishlayotganida uning ekranida Oddiy KN rejimi ikoni ko'rsatiladi. Ikon shakli va joylashuvi modelga qarab farqlanishi mumkin. Tafsilotlar uchun mahsulotning Foydalanuvchi qo'llanmasini ko'ring.

Oddiy KN rejimidan foydalanishni to'xtatmoqchi bo'lsangiz, printerning boshqaruv paneli yoki Web Config orqali Wi-Fi Direct xususiyatini o'chiring.

Mahsulotdan tarmoqda foydalanish

Eslatma:
- ❏ *Oddiy KN rejimiga ulangan qurilmadan ulansangiz, mahsulot infrastruktura yoki Ethernet tarmoqlariga ulangan bo'lsa ham, siz bu tarmoqlarga qo'shila olmaysiz.*
- ❏ *Oddiy KN rejimi bu xususiyat orqali mahsulotga ulangan qurilmalar orasida aloqa funksiyasini ta'minlamaydi.*
- ❏ *Ulanadigan qurilmalar maksimal soniga yetilgani sababli mahsulotga ulana olmasangiz, qurilmalardan birini mahsulotning SSID (DIRECT-xxxxxxxx) nomi bilan aloqasini uzing. Ayni paytda qaysi qurilmalar ulanganini bilmasangiz, mahsulotning boshqaruv panelida parolini o'zgartirish orqali hamma qurilmalar bilan aloqani uzishingiz mumkin. Esda tutingki, buning narijasida barcha qurilmalar uziladi. Buning narijasida uzilgan bironta qurilmani qayta ulash uchun tarmoq sozlamalarini takroran qo'yish lozim.*
- ❏ *Agar Wi-Fi Direct xususiyati bor bironta qurilma mahsulotga Oddiy KN rejimi orqali ulanmasa, uni Wi-Fi Direct rejimi orqali ulang.*
- ❏ *Yangilangan Windows OT ishlayotgan kompyuterni ulab bo'lmaydi.*

Wi-Fi Direct xususiyatidan foydalanishga oid tafsilotlar uchun quyidagi havolani bosing. Bu xususiyat barcha mahsulotlarda ham mavjud emas.

html/wifid.htm

Smartfon yoki planshetlar Wi-Fi Direct xususiyatiga ega bo'lganida

Wi-Fi Direct xususiyati bor Android qurilmasi ishlatayotganda printerga Wi-Fi Direct orqali ulanish ham mumkin.

Eslatma:
Android OT versiyasi yoki modeliga qarab, Wi-Fi Direct aloqasi qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin. Ishlash jarayoni modeliga qarab farq qiladi.

1. Printerda Wi-Fi Direct xususiyatini sozlash.
   Bu bosqichga oid tafsilotlar uchun Wi-Fi Direct havolasini bosing.

2. Smartfon yoki planshetni printerga Wi-Fi Direct orqali ulash.
   Bu bosqichga oid tafsilotlar uchun smartfon yoki planshetning yo'riqnomalariga qarang.

3. Printerning boshqaruv panelidagi xabarni ko'ring. Aloqani qabul qilish uchun "ma'qullash"ni tanlang. Aloqani rad etish uchun "rad etish"ni tanlang.

4. Qurilma haqidagi ma'lumotni printerda qayddan o'tkazish-o'tkazmaslikni tanlang.
   Agar aloqani qabul qilib, qurilma haqidagi ma'lumotni qayddan o'tkazsangiz, keyingi safar panelda amal bajarmasdan, qurilma avtomatik ravishda printerga ulanadi. Agar aloqani rad etib, qurilma haqidagi ma'lumotni qayddan o'tkazsangiz, kelgusida Wi-Fi Direct orqali ulamoqchi bo'lsangiz ham, printer shu qurilma bilan aloqani rad etadi.

Eslatma:
- ❏ *Agar printerning boshqaruv panelida noma'lum qurilma bilan aloqani tasdiqlash so'ralaversa, uni rad etilgan qurilma sifatida qayddan o'tkazishni maslahat beramiz.*
- ❏ *Agar bironta qurilmani tasodifan qayddan o'tkazib qo'ysangiz, boshqaruv panelida Wi-Fi Direct sozlamalaridagi qayd etilgan qurilmani o'chirib tashlang. Bu funksiyani ishlatsangiz, printerda qayd etilgan qurilmaning aloqa ma'lumotlari to'laligicha o'chirib tashlanadi.*

Wi-Fi Direct rejim

Wi-Fi Direct rejimida mahsulotga Wi-Fi Direct xususiyati bor bitta qurilmani ulash mumkin. Wi-Fi Direct rejimida tarmoqqa ulanilayotganda boshqa tarmoq aloqalari uziladi. Natijada, mahsulotga Internet orqali kirishning Epson Connect va boshqa funksiyalari ham o‘chadi.

Mahsulot Wi-Fi Direct rejimida ishlayotganida uning ekranida Wi-Fi Direct rejimi ikoni ko‘rsatiladi. Ikon shakli va joylashuvi modelga qarab farqlanishi mumkin. Tafsilotlar uchun mahsulotning Foydalanuvchi qo'llanmasini ko‘ring.

Aloqani bo‘shatish uchun mahsulotni qurilmadan uzing. Mahsulot avvalgi tarmoqqa qayta ulanadi.

Maxsus rejim

Maxsus rejimda mahsulot bilan kompyuter kirish nuqtasini ishlatmasdan, simsiz aloqa qiladi. Maxsus rejimda ulanish uchun avval kompyuterning Maxsus sozlamalarini (SSID) qo‘ying.

Windows uchun:
Mahsulot diskini kompyuterga kiriting, keyin ekrandagi yo‘l-yo‘riqlarga amal qiling.
“Windows” - 8-sahifada.

Mac OS X uchun:
Tarmoqni EpsonNet Setup yordamida sozlang.
“Mac OS X” - 11-sahifada

Eslatma:
- ❏ *Wi-Fi aloqasi bor bo‘lsa ham, mahsulot bilan kompyuter bu muhitda aloqa qila olmasligi mumkin. Shunga qaramasdan, Maxsus aloqani sozlash mumkin bo‘ladi. Bu mahsulot bilan kompyuter o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqadir. Bunda faqat bitta kompyuterni ulash mumkin. Boshqa kompyuterlar mahsulotga Wi-Fi orqali ulana olmaydi.*
- ❏ *Maxsus aloqani sozlashning qanday kechishi OT, kompyuter va simsiz qurilmalar ishlab chiqaruvchisiga bog‘liq. Tafsilotlar uchun simsiz qurilmalarning yo‘riqnomalariga qarang yoki ishlab chiqaruvchining mijozlar bilan ishlash xizmatiga murojaat qiling. Quyidagi bo‘limda Windows 7, Vista, XP yoki Mac OS X standart sozlamalarini belgilash haqida yozilgan.*

Windows 7/Vista uchun

1. **Start (Ishga tushirmoq)** > **Control Panel (Boshqaruv paneli)** > **View network status and tasks (Tarmoq holati va vazifalarini ko‘rib chiqmoq)** ni tanlang.
2. **Change adapter settings (Adapter parametrlarini o‘zgartirish)** (7 uchun) yoki **Manage network connections (Tarmoq ulanishlarini boshqarish)** (Vista uchun) ni bosing.

Mahsulotdan tarmoqda foydalanish

3 **Wireless Network Connection (Simsiz tarmoq ulanishi)** ikoniga ikki marta bosing.



4 **Windows 7** uchun: **Open Network and Sharing Center (Tarmoq va umumiy foydalanish markazini ochmoq)**ni bosib, **Set up a new connection or network (Yangi ulanish yoki tarmoqni o`rnatmoq)** ni bosing.

Windows Vista uchun: **Set up a connection or network (Ulanish yoki tarmoqni o`rnatmoq)** ni bosing.

5 **Set up a wireless ad hoc (computer-to-computer) network (Kompyuter-kompyuter simsiz tarmoqni sozlamoq)** ni tanlab, **Next (Keyingi)** ni bosing.

6 **Next (Keyingi)** ni bosing.

7 Sozlamalarni qo`yish uchun jadvalni ko`ring, keyin **Next (Keyingi)** ni bosing.



a	**Network name (SSID) (Tarmoq nomi (SSID))**: quyidagi belgilardan tashkil topgan nomni kiriting. 0123456789 !"#$%&'()*+,-./:; ABCDEFGHIJKLMNOPQRSTUVWXYZ abcdefghijklmnopqrstuvwxyz [¥]^_`{|}~<=>?@
b	**Security type (Xavfsizlik turi)**: WEPni tanlang.
c	**Security key (Xavfsizlik kaliti)**: 5 ta yoki 13 ta ASCII belgilardan iborat so`z kiriting (mas., epson), yoki 10 ta yoki 26 ta o`n oltitalik (hexadecimal) belgilardan kiriting.

d	(**Windows 7**/**Vista**) Save this network (Ushbu tarmoqni saqlamoq): bu katakni belgilang.

8 **Close (Yopmoq)** ni bosing.

9 **Wireless Network Connection (Simsiz tarmoq ulanishi)** ikoniga ikki marta bosing.

10 Maxsus aloqa qayddan o'tganiga ishonch hosil qilib, **appropriate place on the Desktop (Ish stolidagi tegishli joyga)** (7 uchun) yoki **Cancel (Bekor qilmoq)** (Vista uchun) ni bosing.

> ***Eslatma:***
> *Tarmoq nomini (SSID) tanlaganingizda **Connect (Ulanmoq)** tugmasi ko'rsatilsa, **Connect (Ulanmoq)** ni bosing.*

Windows XP uchun

1 **Start (Ishga tushirmoq)** > **Control Panel (Boshqaruv paneli)** > **Network and Internet Connections (Tarmoq va Internetga ulanish)** ni tanlang.

2 **Network Connections (Tarmoq ulanishlari)** ni bosing.

3 **Wireless Network Connection (Simsiz tarmoq ulanishi)** ga sichqonning o'ng tugmasini bosib, **Properties (Xususiyatlar)** ni tanlang, keyin **Wireless Networks (Simsiz tarmoqlar)** sahifasini bosing.

> ***Eslatma:***
> *Simsiz qurilmangiz bilan birga kelgan dasturdan foydalanyotgan bo'lsangiz, **Wireless Networks (Simsiz tarmoqlar)** sahifasi ko'rsatilmasligi mumkin. Tafsilotlari uchun simsiz qurilmaning yo'riqnomalarini ko'ring.*



4 **Use Windows to configure my wireless network settings (Simsiz tarmoq parametrlari avtomatik tarzda sozlansin)** ni tanlab, **Advanced (Qo'shimcha)** ni bosing.

5 **Computer-to-computer (ad hoc) networks only (Faqat kompyuter-kompyuter tarmog'i)** ni tanlang.

6 **Automatically connect to non-preferred networks (Har qanday tarmoqqa avtomatik tarzda ulanish)** dan belgini olib tashlab, **Close (Yopmoq)** ni bosing.

7 **Add (Qo‘shmoq)** ni bosing.

8 Sozlamalarni qo‘yish uchun jadvalni ko‘ring, keyin **OK** ni bosing.



a	**Network name (SSID) (Tarmoq nomi (SSID))**: quyidagi belgilardan tashkil topgan nomni kiriting. 0123456789 !”#$%&’()*+,-./:; ABCDEFGHIJKLMNOPQRSTUVWXYZ abcdefghijklmnopqrstuvwxyz [¥]^_`{|}~<=>?@
b	**Security type (Xavfsizlik turi)**: WEPni tanlang.
c	**Security key (Xavfsizlik kaliti)**: 5 ta yoki 13 ta ASCII belgilardan iborat so‘z kiriting (mas., epson), yoki 10 ta yoki 26 ta o‘n oltitalik (hexadecimal) belgilardan kiriting.
d	(**Windows XP**) The key is provided for me automatically (Bu kalit menga avtomatik tarzda berilgan): xavfsizlik kalitini kiritish uchun bu belgini olib tashlang.
e	(**Windows XP** SP3) Connect even if this network is not broadcasting (Hattoki, ushbu tarmoq eshittirish olib bormayotgan bo‘lsa ham, ulanmoq): bu katakni belgilang.

9 **Connection (Ulanish)** sahifasiga o‘ting.

10 **Connect when this network is in range (Tarmoq ta’sir radiusida bo‘lsa, avtomatik ulanish)** ni tanlab, **OK** ni bosing.

11 **Wireless Network Connection (Simsiz tarmoq ulanishi)** ga sichqonning o‘ng tugmasini bosib, **Properties (Xususiyatlar)** ni tanlang, keyin yana **Wireless Networks (Simsiz tarmoqlar)** sahifasini bosing.

12 Ikonda ko‘k doira borligini tekshiring, keyin **OK** ni bosing.



Mac OS X uchun

1 Apple menyusidan **System Preferences** ni tanlang.

2 **Network** ikonini bosing.

3 **AirPort** ni tanlab, **Turn AirPort On** ni bosing.



4 **Network Name** ro‘yxatidan **Create Network** ni tanlang.

5 Tarmoq nomini kiritib, **Require Password** katagiga belgi qo‘ying.

6 Parolni kiritib, **OK** ni bosing.

7 **Advanced** ni bosing.

8 **TCP/IP** ni bosing.

9 **Using DHCP** ni **Configure IPv4** ro‘yxatidan belgilab, **OK** ni bosing.

10 **Apply** ni bosing.

Nosozliklarni bartaraf etish

Tarmoq muammolarni hal qilishga oid maslahatlar

Tarmoq muammolarini tarmoq muhiti, kompyuter va mahsulot keltirib chiqarishi mumkin. Muammolarni yechishga yordam bo‘lishi uchun, quyidagi usullarda tarmoq holatini tekshirish va tasdiqlash mumkin.

> ***Eslatma:***
> *Tarmoq sozlamalari o‘zgartirilganida, ularning kuchga kirishi uchun 30 dan 60 soniyagacha vaqt ketadi. (Qachon kuchga kirishiga sozlash usuli, simsiz router, kirish nuqtasi va hokazolar ta’sir qiladi.)*

Tarmoq aloqasini tekshirish hisobotini chop etish

Tarmoq sozlamalarini o‘zgartirsangiz, masalan, tarmoq muhitini o‘zgartirsangiz, tarmoq aloqasini tekshirib, hisobotini chop etishingiz mumkin.

Tarmoq aloqasi ishlamasa, tekshirish hisoboti yordamida muammoga yechim topish mumkin.

Qanday qilib tarmoq aloqasini tekshirish va hisobotni chiqarishga oid tafsilotlar uchun mahsulot yo‘riqnomasiga qarang.

> ***Eslatma:***
> *Bu xususiyat LCD paneli yo‘q mahsulotlarda mavjud emas.*

Tarmoq aloqasini tekshirish hisobotidan foydalanishga oid ma’lumot uchun quyidagi havolani bosing. Bu xususiyat hamma mahsulotlarda ham mavjud bo‘lmasligi yoki yoqilmagan bo‘lishi mumkin.

html/_files/nwchk.htm

Tarmoq holatini ko‘rsatish va tarmoq holati varag‘ini chiqarish

Tarmoq holatini LCD ekranda ko‘rsatish va tarmoq holati varag‘ini chop etish mumkin. Tarmoq holatida, ulanish usuli, tezligi, IP manzili, xavfsizlik usuli va Epson Connect holati haqidagi ma’lumotlarni tasdiqlashingiz mumkin.

Mahsulotning LCD paneli bor bo‘lsa, qisqa holat ma’lumotini ko‘rsatish va batafsil holat ma’lumotini chop etish mumkin. Bu xususiyat barcha mahsulotlarda ham mavjud emas.

Mahsulotning LCD paneli bo‘lmasa, boshqaruv panelidagi tugmalar yordamida batafsil holat ma’lumotini chop etish mumkin.

Tarmoq holatini ko‘rsatish va tarmoq holati varag‘ini chiqarishga oid tafsilotlar uchun mahsulot yo‘riqnomasiga qarang.

Wi-Fi sozlamalarini o‘chirish va boshidan boshlash

Wi-Fi sozlamalarini o‘chirish va boshidan boshlab sozlash orqali tarmoq muammolarini hal qilish mumkin.

Bu operatsiyalar mahsulot modeliga qarab farq qiladi. Tafsilotlar uchun mahsulot yo‘riqnomasiga qarang.

Eslatma:
Wi-Fi sozlamalarini o'chirish yoki boshidan boshlashdan avval SSID bilan parolni yozib olish tavsiya etiladi.

Wi-Fi funksiyasini o‘chirish:
Mahsulotning LCD paneli bor bo‘lsa, o‘sha orqali Wi-Fi funksiyasini o‘chirish yoki Ethernet ulanishiga o‘tish mumkin.
Mahsulotning LCD paneli bo‘lmasa, faol tarmoqqa ulangan Ethernet kabelini ulash orqali Wi-Fi funksiyasini o‘chirish mumkin.
Mahsulotda LCD panel ham, Ethernet interfeysi ham bo‘lmasa, boshqaruv paneldagi tugma yordamida tarmoq sozlamalarini qaytadan boshlash orqali Wi-Fi funksiyasini o‘chirish mumkin.

Eslatma:
Agar mahsulotda Ethernet va Wi-Fi funksiyasi bor bo'lsa, Wi-Fi funksiyasi o‘chirilganida Ethernet funksiyasi yoqiladi.

Tarmoq sozlamalarini qaytadan boshlash:
Mahsulotning LCD paneli bor bo‘lsa, o‘sha orqali tarmoq sozlamalarini qaytadan boshlash mumkin.
Mahsulotning LCD paneli bo‘lmasa, boshqaruv panelidagi tugmalar yordamida tarmoq sozlamalarini qaytadan boshlash mumkin.

Eslatma:
Tarmoq sozlamalarini qaytadan boshlasangiz, Epson Connect sozlamalari va boshqa kompaniyalar ta’minlagan tarmoqda chop etish xizmatlari ham qaytadan boshlanadi.

Mahsulot mikrodasturini yangilash

Mahsulot mikrodasturini yangilash orqali tarmoq muammolarini hal qilish mumkin. Mahsulotning mikrodasturi eng so‘nggi versiyada ekanligini tasdiqlang.

Veb-brauzer orqali Web Config oynasini oching, keyin mikrodasturni yangilang.

Eslatma:
Bu xususiyat hamma mahsulotlarda ham mavjud bo'lmasligi yoki yoqilmagan bo'lishi mumkin.

Web Config oynasini ochishga oid tafsilotlar uchun mahsulotning Foydalanuvchi qo'llanmasini ko‘ring.

Aloqani Ping buyrug‘i bilan tekshirish

Mahsulotga ichki o‘rnatilgan veb-sahifasiga kira olmasangiz, mahsulotga chop etish vazifasini yuborganda ham javob bermasa yoki boshqa muammo yuz bersa, bu xususiyat yordamida kompyuter bilan mahsulot o‘rtasida aloqa o‘rnatilgan-o‘rnatilmaganini aniqlashingiz mumkin.

Ping buyrug‘ini ishlatishdan avval kompyuter bilan mahsulotda qo‘yilgan IP manzilllarini tekshirib ko‘rishingiz lozim.

Kompyuterni ishlatishga oid tafsilotlar uchun “Ping buyrug‘i” - 24-sahifada ni ko‘ring.

Ping buyrug‘i

TCP/IP tarmog‘ida kompyuter bilan mahsulotda qo‘yilgan IP manzillarini tasdiqlang, keyin ular o‘rtasida aloqa o‘rnatilgan-o‘rnatilmaganini tekshiring.

Windows tizimida tasdiqlash

1. Mahsulotning IP manzilini tekshiring.

   IP manzilini tarmoq holati varag‘i, tekshirish hisoboti yoki LCD ekranida tekshirish mumkin.

   Tarmoq holati varag‘ida tekshirish uchun “Tarmoq holatini ko‘rsatish va tarmoq holati varag‘ini chiqarish” - 22-sahifada ni ko‘ring.

2. Windows 8.1/8 uchun: **All apps (Barcha ilovalar)** ni tanlab, **Command Prompt (Buyruq satri)** ni tanlang.

   Windows 7/Vista/XP uchun: Start (Ishga tushirmoq) tugmasini yoki **start (Ishga tushirmoq)**, **All Programs (Barcha dasturlar)** yoki **Programs (Dasturlar)**, **Accessories (Standart)** ni bosib, keyin **Command Prompt (Buyruq satri)** ni bosing.

3. "Ping", bo‘shliq, "<mahsulotning IP manzilini>" kiiritib, Enter klavishini bosing.

4. Aloqa o‘rnatilgan bo‘lsa, **Reply from <the product’s IP address> (<Mahsulotning IP manzili> javobi)** ko‘rsatiladi.

   Aloqa o‘rnatilmagan bo‘lsa, **Destination host unreachable (Mo‘ljaldagi xost topilmadi)** yoki **Request timed out (So'rovning muddati tugadi)** chiqadi. Qurilmaning tarmoq sozlamalarini kompyuterda tekshirish.

Mac OS X da tekshirish

1. Mahsulotning IP manzilini tasdiqlash.

   IP manzilini tarmoq holati varag‘ida tekshirish mumkin. “Tarmoq holatini ko‘rsatish va tarmoq holati varag‘ini chiqarish” - 22-sahifada ni ko‘ring.

2. **Macintosh HD**, **Applications**, **Utilities**, keyin **Network Utility** ga ikki marta bosing.

3. **Ping** sahifasiga o‘ting.

4. Tarmoqdagi manzil maydoniga mahsulotning IP manzilini kiriting.

5. **Ping** ni bosing.

6 Aloqa o`rnatilgan bo`lsa, barcha signallar qaytib keladi va **0% packet loss** ko`rsatiladi.

Aloqa o`rnatilmagan bo`lsa, signal qaytib kelmaydi va **100% packet loss** ko`rsatiladi. Qurilmaning tarmoq sozlamalarini kompyuterda tekshirish.

Sozlash muammolari

Wi-Fi bilan ulanish

SSID topilmayapti

- **Simsiz router/kirish nuqtasiga ulanish mumkinmi?**
  Unga simsiz ulanish mumkinnligini tasdiqlash uchun kompyuter yoki boshqa qurilmadan foydalaning.

- **Mahsulot kirish nuqtasidan uzoqda joylashganmi yoki ularning orasida to`siq bormi?**
  Mahsulotni kirish nuqtasi yaqiniga ko`chiring yoki to`siqni olib tashlang.

- **Kirish nuqtasi sozlamalarida SSID (tarmoq nomi) yashirinmi?**
  Agar SSID nomini yashirish uchun kirish nuqtasining yashirin funksiyasi va hk. yoqilgan bo`lsa, SSID nomini boshqaruv panelida kiriting. "Mahsulotni Wi-Fi tarmoqqa qo`lda ulash" - 12-sahifada ni ko`ring.

- **SSID (tarmoq nomida) ASCII bo`lmagan belgilar bormi?**
  SSID (tarmoq nomida) ASCII bo`lmagan belgilar borligini tekshiring. Mahsulot ASCII bo`lmagan belgilarni ko`rsata olmaydi.

Kirish nuqtasiga ulanib bo`lmayapti

- **Mahsulot kirish nuqtasidan uzoqda joylashganmi yoki ularning orasida to`siq bormi?**
  Mahsulotni kirish nuqtasi yaqiniga ko`chiring yoki to`siqni olib tashlang.

- **Parol to`g`rimi?**
  Parolda katta-kichik harflar farqlanadi. Kiritilgan parol to`g`riligini tekshiring. Ishlatilayotgan kirish nuqtasi yoki xavfsizlik tizimiga qarab, parol "WEP kaliti", "WPA iborasi", "Ulashilgan kalit" va hokazo deb nomlanishi mumkin.

- **Kirish nuqtasida kirish cheklovlari o`rnatilganmi?**
  Kirish nuqtasida (simsiz routerda va hk) kirish cheklovlari o`rnatilgan bo`lsa, aloqaga ruxsat berish uchun kirish nuqtasida mahsulotning MAC manzili yoki IP manzilini qayddan o`tkazing. Tafsilotlar uchun kirish nuqtasining foydalanuvchi qo'llanmasini ko`ring.

- **WLAN bilan jihozlangan kompyuterda ishlatiladigan simsiz kanallar cheklanganmi?**
  Simsiz jihozli kompyuterda ishlatiladigan simsiz kanallar cheklanishi mumkin. Ishlatiladigan simsiz kanallarni tekshirish uchun kompyuter yoki simsiz kartaning qo`llanmasini ko`ring. Yuqorida tasdiqlangan simsiz kanallarga kirish nuqtasiga qo`yilgan kanallar ham kirishini tekshiring. Qo`shilmagan bo`lsa, kirish nuqtasi simsiz kanallarini o`zgartiring.

- **Tarmoq adapteri bu mahsulotning standartlariga mos keladimi?**
  Wi-Fi qurilmalari uchun turli standartlar mavjud, jumladan, 802.11a, 802.11b, 802.11g va 802.11n, bundan tashqari turli chastotalardagi elektromagnit to`lqinlar ishlatiladi.

Wi-Fi Direct bilan ulanish

Birnechta tarmoq interfeysiga ega kompyuterga mahsulotni Wi-Fi Direct orqali ulaganda internetga kirmayapti

❑ **Internetga ulangan tarmoq adapteri past dolzarblikka qo‘yib qo‘yilganmi?**
Internet tezligi past bo‘lgani holda kompyuterni mahsulotga Wi-Fi Direct (Oddiy KN rejimi) orqali ulasangiz, internetga kira olmasligingiz mumkin.

1 Windows Network Connections (Windows Tarmoq Ulanishlari) ekranini oching.

Windows 8.1/8 uchun: **Desktop (Ishchi stol)** > **Settings (Parametrlar)** o‘tish tugmasi > **Control Panel (Boshqaruv paneli)** ni bosing, keyin **View network status and tasks (Tarmoq holati va vazifalarini ko‘rib chiqmoq)** > **Change adapter settings (Adapter parametrlarini o‘zgartirish)** ni tanlang

Windows 7 uchun: Start (Ishga tushirmoq)> **Control Panel (Boshqaruv paneli)** > **Network and Internet (Tarmoq va Internet)** > **Network and Sharing Center (Tarmoq va umumiy foydalanish markazi)** > **View network status and tasks (Tarmoq holati va vazifalarini ko‘rib chiqmoq)** > **Change adapter settings (Adapter parametrlarini o‘zgartirish)** ni bosing

Windows Vista uchun: Start (Ishga tushirmoq)> **Control Panel (Boshqaruv paneli)** > **Network and Internet (Tarmoq va Internet)** > **Network and Sharing Center (Tarmoq va umumiy foydalanish markazi)** > **View network status and tasks (Tarmoq holati va vazifalarini ko‘rib chiqmoq)** > **Manage network connections (Tarmoq ulanishlarini boshqarish)** ni bosing

Windows XP uchun: **Start (Ishga tushirmoq)** > **Control Panel (Boshqaruv paneli)** > **Network and Internet Connections (Tarmoq va Internetga ulanish)** > **Network Connections (Tarmoq ulanishlari)**

2 **Wireless Network Connection (Simsiz tarmoq ulanishi)** (DIRECT-xxxxxxxx) ga sichqonning o‘ng tugmasini bosib, **Properties (Xususiyatlar)** ni tanlang.

3 **Internet Protocol Version 4 (TCP/IPv4) (Internet protokoli 4-versiyasi (TCP/IPv4))** ni tanlab, **Properties (Xususiyatlar)** ni bosing.

4 **Advanced (Qo‘shimcha)** ni bosing.

5 **Automatic metric (Avtomatik metrika)** dan belgini olib tashlab, **Internet metric (Interfeys metrikasi)** ga "100" ni kiriting va **OK** ni bosing.

> ***Eslatma:***
> *Shunda ham Internetga ulana olmasangiz, 3-bosqichdagi amallarni **Internet Protocol Version 6 (TCP/IPv6) (Internet protokoli 6-versiyasi (TCP/IPv6))** uchun bajaring.*

Wi-Fi Direct to‘satdan uzilib qolmoqda

- **Wi-Fi Direct paroli (kirish nuqtasi rejimi) o‘zgardimi?**
  Qurilmada qayd qilingan "DIRECT-xxxxxxxx"dagi aloqa sozlamalarin o‘chirib tashlab, "DIRECT-xxxxxxxx"ni yana tanlang va yangi parolni kiriting. Sozlamalarni o‘chirishga oid tafsilotlar uchun qurilmaning yo‘riqnomalariga qarang.

- **Mahsulotning tarmoq sozlamalari o‘zgardimi?**
  Mahsulotning tarmoq sozlamalarini tekshiring. Tarmoqqa ulanish usuli kirish nuqtasi rejimidan boshqa rejimga o‘zgargan bo‘lishi mumkin. Ulanish usulini boshqa rejimdan kirish nuqtasi rejimiga qaytarish uchun mahsulotning tarmoq sozlamalarini qaytadan boshlang, keyin qurilmani mahsulotga Wi-Fi Direct orqali ulang. Mahsulotning tarmoq sozlamalarini uning LCD ekrani yoki tarmoq holati varag‘idan tekshirish mumkin.

Ethernet’ga ulanish

Ethernet’ga ulanib bo‘lmayapti

- **Boshqaruv panelida Wi-Fi o‘chirib qo‘yilganmi?**
  Agar yoqilgan bo‘lsa, Ethernet tarmog‘iga ulana olmaysiz. Uni o‘chirib qo‘ying.

- **Ethernet tarmoq ulanishidagi xab, Ethernet kabeli va boshqalar to‘g‘ri ishlayaptimi?**
  Mahsulot yoqilganligini va xabning mahsulot ulangan portidagi ulanish LED chirog‘i yonayotganini tekshiring. Ulanish LED chirog‘i o‘chiq bo‘lsa, quyidagilarni bajarib ko‘ring.
  1. Boshqa portga ulang.
  2. Boshqa xabga ulang.
  3. Ethernet kabelini almashtiring.

- **Mahsulotning aloqa rejimi xab yoki routernikiga to‘g‘ri keladimi?**
  Mahsulotning aloqa rejimi xab yoki routernikiga mos kelishini tasdiqlang.
  Mahsulot va xab/router aloqa rejimlarini moslash uchun quyidagi jadvalni ko‘ring. (Mahsulotning odatiy aloqa rejimi Avtomatikdir).
  Xab/router aloqa rejimini tekshirish/qo‘yish jarayonini foydalanuvchi qo‘llanmasidan ko‘ring.

  Mahsulotga mos keladigan aloqa rejimiga oid tafsilotlar uchun foydalanuvchi qo‘llanmasini ko‘ring.

		Xab/router sozlamalari						
		Avtomatik	**1000 Base-T Full Duplex**	**1000 Base-T Half Duplex**	**100 Base-TX Full Duplex**	**100 Base-TX Half Duplex**	**10Base-TX Full Duplex**	**10Base-TX Half Duplex**
Mahsulot sozlamalari	**Avtomatik**	Y	Y	Y	N	Y	N	Y
	100Base-TX Full Duplex	N	N	N	Y	N	N	N
	100Base-TX Half Duplex	Y	N	N	N	Y	N	N
	10Base-TX Full Duplex	N	N	N	N	N	Y	N
	10Base-TX Half Duplex	Y	N	N	N	N	N	Y

Y: Nni yoqish: O‘chirish

Wi-Fi yoki Ethernet’ga ulanish

Tarmoqqa ulanib bo‘lmayapti

- **“IP manzili va subtarmoq maskasining kombinatsiyasi yaroqsiz.” degan xabar chiqdimi?**
  1-yechim: Router (kirish nuqtasi) DHCP funksiyasini ishlatsa, TCP/IP sozlamasida mahsulot IP manzilini avtomatik tarzda oladigan qilib belgilang.
  2-yechim: Mahsulotning IP manzilini qo‘lda qo‘ymoqchi bo‘lsangiz, quyidagini ko‘ring.
  1. Kompyuterga ulangan router (yoki kirish nuqtasi) IP manzilini tekshiring. Router (yoki kirish nuqtasi) foydalanuvchi qo‘llanmasini ko‘ring.
  2. IP manzillari to‘rtta raqamli qiymatdagi qismga bo‘lib yoziladi. Oxirgi qismida har bir mahsulot uchun 1 dan 254 gacha oraliqda betakror raqamli qiymat qo‘ying. (Agar router DHCP serveri bo‘lsa yoki tarmoqda boshqa DHCP serveri bor bo‘lsa, u tomonidan egallangan IP miqyosi bilan ziddiyat tug‘dirmaydigan qiymatni qo‘ying.)
  Misol:
  Router uchun IP manzili: 192.168.1.**1**
  Mahsulotga qo‘yilishi: 192.168.1.**3**
  Kichik ko‘lamli tarmoqlarda subtarmoq maskasi odatda **255.255.255.0** qilib qo‘yiladi va tarmoqdagi barcha qurilmalar shu qiymatni ishlatadi. Bundan tashqari, shlyuz qiymati qo‘yiladigan bo‘lsa, simsiz routerning IP manzilini qo‘yish kerak.

- **Kompyuterda bittadan ortiq tarmoq interfeysi mavjudmi?**
  Birnechta tarmoq interfeysi bor kompyuterlar bilan skaner aloqa qila olmasligi mumkin. Skaner bilan aloqa qilish uchun kompyuterda skanerga ulangan interfeysdan boshqalarini o‘chirib qo‘ying.

- **TCP/IP ishlatilayotganida kompyuter bilan mahsulot aloqa qila oladimi?**
  Aloqa o‘rnatilganini tekshiring. “Ping buyrug‘i” - 24-sahifada ni ko‘ring.

- **TCP/IP ishlatilayotganda sizdagi tarmoq uchun IP manzili to‘g‘ri qo‘yilganmi?**
  Zavoddagi sozlamalarni ishlatib bo‘lmaydi. Bu IP manzilini ishlatish uchun uni bir marta o‘chirib, yana o‘zini qayta kiriting. Mahsulotning IP manzilini tarmoqqa moslab o‘zgartiring.

IP manzili o‘zgarmoqda

- **Boshqaruv panelda TCP/IP sozlamasi IP manzilini avtomatik tarzda oladigan qilib qo‘yilganmi?**
  Avtomatik qilib qo‘yilgan bo‘lsa, router har gal yoqilganida IP manzili o‘zgaradi. Avtomatik sozlamani ishlatayotganda mahsulotni o‘chirmang. Mahsulot portini EpsonNet Print (Windowsda) yoki Bonjour chop etish (Mac OS Xda) dan foydalanib qo‘yilganda avtomatik sozlamani tanlash mumkin.

Chop etishda muammolar

Wi-Fi’ga ulangan kompyuter

Tarmoq orqali chop etib bo‘lmayapti

- **Tarmoq aloqasi sozlamalari to‘g‘rimi?**
  Tarmoq aloqasi sozlamalaridagi muammolarga oid tafsilotlar uchun “Sozlash muammolari” - 25-sahifada ni ko‘ring.

- **Mahsulot kirish nuqtasiga (simsiz routerga va hk.) to‘g‘ri ulanganmi?**
  Uzilgan bo‘lsa, quyidagilarni tekshiring.
  Kirish nuqtasi (simsiz router va hk.) yoqilganligi.
  Wi-Fi sozlamalari kirish nuqtasidagiga (simsiz router va hk.) mos keladi.

- **Simsiz aloqa uzilib qolmoqdami?**
  Uzilgan bo‘lsa, mahsulotni o‘chirib yoqing. Boshqaruv panel tafsilotlari uchun “Mahsulotni Wi-Fi tarmoqqa qo‘lda ulash” - 12-sahifada ni ko‘ring.

- **Kirish nuqtasida (yoki simsiz routerda) Maxfiylik Ajratuvchisi funksiyasi yoqilganmi?**
  Maxfiylik Ajratuvchisi funksiyasi yoqilgan bo‘lsa, tarmoq orqali kompyuter, smartfon yoki planshetdan chop eta olmaysiz, chunki bu funksiya qurilmalar orasidagi aloqani to‘sadi. Kirish nuqtasida (yoki simsiz routerda) Maxfiylik Ajratuvchisi funksiyasini o‘chiring. Sozlamalarni qo‘yish yoki tekshirishga oid ko‘proq ma’lumot uchun kirish nuqtasi (yoki simsiz router) bilan birga kelgan qo‘llanmani ko‘ring.

Ethernet’ga ulangan kompyuter

Sekin chop etilmoqda yoki axborot oxiri uzilib qolgan

- **Mahsulot bilan ulangan xabdagi aloqa rejimlari (full duplex/half duplex) bir xilmi?**
  Mahsulotning odatiy aloqa tezligi rejimi avtomatikdir. Agar xabning aloqa rejimi o‘zgarmas bo‘lsa, mahsulot bilan xabdagi aloqa rejimlari har xil bo‘lib qoladi va chop etish o‘ta sekinlashadi yoki vaqt tugagani sababli axborot oxiri uzilib qoladi.

Wi-Fi yoki Ethernet’ga ulangan kompyuter

Sekin chop etilmoqda yoki axborot oxiri uzilib qolgan

❏ **Printer porti to‘g‘ri sozlanganmi?**
Printer portini tekshirish uchun quyidagi bosqichlarni bajaring (Windows uchun).
1. **Desktop (Ishchi stol)** > **Settings (Parametrlar)** o‘tish tugmasi > **Control Panel (Boshqaruv paneli)** ni bosing, keyin **View devices and printers (Qurilmalar va printerlarni ko‘rib chiqish)** ni tanlang (Windows 8 uchun).
Start (Ishga tushirmoq) - **Control Panel (Boshqaruv paneli)** - **Hardware and Sound (Uskuna va ovoz)** - **Devices and Printers (Qurilmalar va printerlar)** (Windows 7 uchun) ni bosing.
Start (Ishga tushirmoq) - **Control Panel (Boshqaruv paneli)** - **Hardware and Sound (Uskuna va ovoz)** - **Printers (Printerlar)** (Windows Vista uchun) ni bosing.
Start (Ishga tushirmoq) - **Control Panel (Boshqaruv paneli)** - **Printers and Other Hardware (Printerlar va boshqa uskunalar)** - **Printers and Faxes (Printer va fakslar)** (Windows XP uchun) ni bosing.
2. Mahsulot ikoniga sichqonning o‘ng tugmasini bosing.
3. **Printer properties (Printer xususiyatlari)** (Windows 8/7) yoki **Properties (Xususiyatlar)** (Windows Vista/XP) ni tanlang.
4. **Ports (Portlar)** sahifasiga o‘ting.
5. Tavsiflar ustunida mahsulotingiz uchun to‘g‘ri protokol tanlanganini tekshiring.

Smartfon yoki planshet

Qurilma AirPrint orqali birnechta sahifani jo‘natsa ham, printer faqat oxirgi sahifani chop etmoqda

❏ **Qurilma iOS 4.x tizimida ishlamoqdami?**
AirPrint bilan ishlovchi printerlar iOS 5.x yoki yangiroq tizimni qo‘llab-quvvatlaydi. AirPrint orqali chop etish uchun iOS 5.x yoki yangirog‘ini ishlating. Printer iOS 4.x bilan to‘g‘ri chop etmasligi mumkin. iOS 4.x ishlatayotgan bo‘lsangiz, operatsion tizimni iOS 5.x yoki yangirog‘iga yangilang. Operatsion tizimni yangilash uchun Apple veb-saytiga tashrif buyuring.

Skanlashda muammolar

Wi-Fi yoki Ethernet’ga ulanish

EPSON Scan bilan boshlash, qo‘yish yoki skanlash amalga oshmayapti

❏ **Aloqa sinovi muvaffaqiyatli bo‘lganmidi?**
Muvaffaqiyatsiz bo‘lsa, tarmoqda muammo bor-yo‘qligini tekshiring.

❏ **Kompyuterda IP manzili to‘g‘ri qo‘yilganmi?**
IP manzili kabi tarmoq sozlamalariga oid tafsilotlar uchun “Sozlash muammolari” - 25-sahifada ni ko‘ring.

- **Aloqa uzilib qoldimi?**
  EPSON Scan boshlanayotgan paytida aloqa uzilib qolgan bo‘lsa, EPSON Scan dasturidan chiqib, birozdan so‘ng qayta boshlang. EPSON Scan dasturini qayta boshlab bo‘lmasa, mahsulotni o‘chirib-yoqing, keyin urinib ko‘ring.
  EPSON Scan Settings (EPSON Scan sozlamasi) da **Timeout Setting (Vaqti tugashi sozlamasi)** ni tekshiring. Tafsilotlar uchun EPSON Scan yordamini ko‘ring.

- **Windows XP yoki yangiroq tizimda yoki xavfsizlik dasturiy ta’minotida fayrvol funksiyasi ishlab turibdimi?**
  Fayrvol funksiyasi ishlab turgan bo‘lsa, **EPSON Scan Settings (EPSON Scan sozlamasi)** da qidiruv ishlamasligi mumkin. Bu holda **EPSON Scan Settings (EPSON Scan sozlamasi)** - **Add (Qo'shish)** - **Enter address (Manzilni kiriting)**ni bosib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri IP manzilini kiriting.

- **Nuqtalar zichligi yuqori bo‘lgan katta narsani skanlamoqdamisiz?**
  Nuqtalar zichligi yuqori bo‘lgan katta narsani skanlashda aloqa xatoligi ro‘y berishi mumkin. Skanlash ishlamasa, nuqtalar zichligini kamaytiring.

"Scan to PC" (kompyuterga skanlash) xususiyati (WSD) ishlamayapti

- **Tarmoqqa WSD xususiyati mavjud kompyuter ulanganmi?**
  Scan to PC (WSD) funksiyasi faqat Windows 8/7/Vista tizimlarining inglizcha versiyalarida ishlaydi. Inglizcha Windows 8/7/Vista ishlayotgan kompyuter bitta tarmoqdagi skanerga ulanganiga ishonch hosil qiling.

Operatsion tizimga bog‘liq muammo

IPv4/IPv6 funksiya jadvali

Kompyuterning operatsion tizimiga qarab, mavjud funksiyalar farqlanadi. Tafsilotlar uchun quyidagi jadvalni ko‘ring.

	Funksiya	**Windows**				**Mac**
		8.1/8	**7**	**Vista**	**XP**	**OS X**
Mos						
	IPv4	Y	Y	Y	Y	Y
	IPv6	Y	Y	Y	-	Y
Chop etish porti						
	Standart TCP/IP porti	v4/v6	v4/v6	v4/v6	v4	-
	EpsonNet Chop etish porti	v4	v4	v4	v4	-
	WSD Port	v4/v6	v4/v6	v4/v6	-	-
	Bonjour chop etish	-	-	-	-	v4/v6
	AirPrint chop etish	-	-	-	-	v4/v6
Skanlash						

	EPSON Scan	v4	v4	v4	v4	v4
	Event Manager	v4	v4	v4	v4	v4
	WSD Skanlash	v4/v6	v4/v6	v4/v6	-	-
	AirPrint skanlash	-	-	-	-	v4/v6
Ulashilgan fayl (xotira kartasi, tashqi qurilma)						
		v4	v4	v4	v4	v4
Faks jo‘natish/qabul qilish						
		v4	v4	v4	v4	v4
	AirPrint faksi	-	-	-	-	v4/v6
Tarmoq xizmatlari						
	Epson Connect	v4	v4	v4	v4	v4
	Google Cloud Print	v4/v6	v4/v6	v4/v6	v4	v4/v6

v4=IPv4, v6=IPv6

Mac OS X

Add Printer muloqot oynasida printer ko‘rinmayapti

❏ **Printer drayveri o‘rnatilganmi?**
Printer drayverini o‘rnating. Dasturiy ta’minotni sozlash tafsilotlari uchun “Mac OS X” - 11-sahifada ni ko‘ring.

❏ **Tarmoq xizmati tarmoq ro‘yxatining eng tepasidami?**
Kompyuterda simli va simsiz tarmoq xizmatlari yoqilgan bo‘lsa, u printerni topa olmasligi mumkin. Bu holda ishlatiladigan tarmoq xizmatini ro‘yxat boshiga qo‘yish uchun quyidagi yo‘l-yo‘riqlarga amal qling.
1. **System Preferences** - **Network** ni oching.
2. ikonini bosib, **Set Service Order** ni tanlang.
3. Eng ko‘p ishlatiladigan tarmoq xizmati turini ro‘yxat tepasiga sudrang.
4. **OK** ni bosing.
5. Sozlamalarni qo‘llash uchun **Apply** ni bosing.

❏ **Kompyuterda tarmoq sozlamalari sozlanganmi?**
Sozlamalar protokolga qarab farq qiladi. Bunday qilib ko‘ring:
EPSON TCP/IP: System Preferences - **Network** - **Advanced** - **TCP/IP** ni ochib, manzillar qo‘yilganini yoki to‘g‘ri IP manzili mahsulotning tarmoq interfeysida zavodda qo‘yilgan sozlamadan farq qilish-qilmasligini tekshiring. “Sozlash muammolari” - 25-sahifada ni ko‘ring.

Chop etishni kompyuterdan bekor qilinsa ham to‘xtatib bo‘lmayapti

- **Chop etish vazifasi Mac OS X v10.6.xtizimi ishlayotgan tarmoqdagi kompyuterdan yuborilganmidi?**
  Quyidagi sharoitlar tarmog‘ingizda mavjud bo‘lsa, kompyuterdan chop etishni to‘xtata olmaysiz.
  - Mahsulot AirPrint xususiyatiga ega.
  - Chop etish vazifasi Mac OS X v10.6.xtizimi ishlayotgan tarmoqdagi kompyuterdan yuborilgan.
  - Web Config uchun Bonjour sozlamalarida **IPP** ga “Top Priority Protocol” sozlamasini o‘rnating.

  Bu holda chop etishni to‘xtatish uchun mahsulotning boshqaruv panelidagi bekor qilish tugmasini bosing.

  Kompyuter orqali chop etishni to‘xtatish imkoniga ega bo‘lmoqchi bo‘lsangiz, quyidagi sozlamalarni qo‘ying.
  1. Web Config oynasini oching.
  2. **AirPrint Setup** ni bosing.
  3. Top Priority Protocol menyusidan **Port9100** ni tanlab, **OK** ni bosing.
  4. Agar Top Priority Protocol:Port9100 ko‘rsatilsa, **OK** ni bosing.
  5. Brauzerni yoping.
  6. Apple menyusidan **System Preferences** ni tanlang.
  7. **Print & Fax** ikonini bosing.
  8. Ro‘yxatdan mahsulotni tanlang va uni o‘chirish uchun **-** ni bosing.
  9. **Printers** ro‘yxati tagidagi **+** ni bosing, keyin tarmoqdagi printerlar ro‘yxatidan qo‘yiladigan mahsulotni tanlang.
  10. Mahsulot nomi Nom qutisida ko‘rsatilgach, **Add** tugmasini bosing.

  Qayta ro‘yxatdan o‘tgan mahsulotdan chop etsangiz, kompyuterdan turib chop etishni to‘xtatish mumkin.

Epson dasturidan CD/DVD muqovasini chop etib bo‘lmayapti

- **Ishlatish (Use) menyusida Epson mahsulot nomini tanladingizmi?**
  Mahsulotni tarmoqqa Bonjour protokoli orqali ulasangiz, Epson mahsulot nomini drayverdagi **Use** menyusidan tanlang. Aks holda, Epson dasturlaridagi ayrim funksiyalarni ishlatib bo‘lmaydi.

iOS

Qurilma AirPrint orqali birnechta sahifani jo‘natsa ham, printer faqat oxirgi sahifani chop etmoqda

- **Qurilma iOS 4.x tizimida ishlamoqdami?**
  AirPrint bilan ishlovchi printerlar iOS 5.x yoki yangiroq tizimni qo‘llab-quvvatlaydi. AirPrint orqali chop etish uchun iOS 5.x yoki yangirog‘ini ishlating. Printer iOS 4.x bilan to‘g‘ri chop etmasligi mumkin. iOS 4.x ishlatayotgan bo‘lsangiz, operatsion tizimni iOS 5.x yoki yangirog‘iga yangilang. Operatsion tizimni yangilash uchun Apple veb-saytiga tashrif buyuring.

Android

Wi-Fi Direct kirish nuqtasi rejimida mahsulotga ulanganda internetga kirib bo‘lmayapti

❏ **Eskiroq versiyadagi Epson iPrint dasturini ishlatmoqdamisiz?**
Wi-Fi Direct kirish nuqtasi rejimida Android qurilmasidan chop etishdaEpson iPrint dasturining eng so‘nggi versiyasini ishlating.

Dasturiy ta’minot muammolari

EpsonNet Print bilan chop etishda dial-up (telefon orqali) ulanish dialogi chiqmoqda

❏ **Internet aloqasi dial-up ulanishga qo‘yilganmi?**
Bu dialog qutisini yopganingizda chop etish normal holatda tugaydi, lekin Windows ni boshlagandan so‘ng har gal chop etishda xabar chiqmoqda. Internetga LAN orqali ulaning yoki dial-up tarmoqqa qo‘lda ulaning.

Epson dasturiy ta’minotini blokdan chiqarish

❏ **Keep Blocking (Bloklash) tugmasini Firewall (Brandmauer) ekranida bosdingizmi?**
Epson dasturiy ta’minotini o‘rnatish mobaynida yoki undan keyin Windows Security Alert (Xavfsizlik tizimi qo‘ng‘irog‘i) oynasida **Keep Blocking (Bloklash)** tugmasini bosgan bo‘lsangiz, Epson dasturiy ta’minotini blokdan chiqarish uchun quyidagi bosqichlarni bajaring.

1. Windows 8 uchun: **Desktop (Ishchi stol)** > **Settings (Parametrlar)** o‘tish tugmasi > **Control Panel (Boshqaruv paneli)** ni bosing, keyin **System and Security (Tizim va xavfsizlik)** ni tanlang.
   Windows 7 uchun: Start (Ishga tushirmoq) > **Control Panel (Boshqaruv paneli)** ni bosing, keyin **System and Security (Tizim va xavfsizlik)** ni bosing.
   Windows Vista uchun: Start (Ishga tushirmoq) > **Control Panel (Boshqaruv paneli)** ni bosing, keyin **Security (Xavfsizlik)** ni bosing.
   Windows XP uchun: **Start (Ishga tushirmoq)** > **Control Panel (Boshqaruv paneli)** ni bosing, keyin **Security Center (Xavfsizlik markazi)** ni bosing.

2. Windows 8 uchun: **Allow an app through Windows Firewall (Ilovaga Windows brandmaueri orqali ruxsat bermoq)** ni tanlang.
   Windows 7 uchun: **Allow a program through Windows Firewall (Dasturning Windows brandmaueri orqali ishlashiga ruxsat bermoq)** ni bosing.
   Windows Vista uchun: **Allow a program through Windows Firewall (Dasturning Windows brandmaueri orqali ishlashiga ruxsat bermoq)** ni bosing.
   Windows XP uchun: **Windows Firewall (Windows brandmaueri)** ni bosing.

3 Windows 8 uchun: **Change settings (Parametrlarni o‘zgartirish)** ni tanlab, keyin **Allow another app (Boshqa ilovaga ruxsat bermoq)** ni tanlang.
Windows 7 uchun: **Allow another program (Boshqa dasturga ruxsat bermoq)** ni bosing.
Windows Vista uchun: **Exceptions (Istisnolar)** sahifasiga o‘tib, **Add Program (Dastur qo‘shmoq)** ni bosing.
Windows XP uchun: **Exceptions (Istisnolar)** sahifasiga o‘tib, **Add Program (Dastur qo‘shmoq)** ni bosing.

> ***Windows Vista foydalanuvchilariga eslatma:***
> *Exceptions (Istisnolar) sahifasini topa olmasangiz,* ***Change settings (Parametrlarni o‘zgartirish)*** *ni bosing.*

4 Ro‘yxatdan Epson dasturiy ta’minotini tanlang, keyin **Add (Qo‘shmoq)** (8/7) yoki **OK** (Vista/XP) ni bosing.

5 **Allowed apps and features (Ruxsat berilgan dastur va xususiyatlar)** (8), **Allowed programs and features (Ruxsat berilgan dastur va xususiyatlar)** (7), **Programs or port (Dasturlar va port)** (Vista) yoki **Programs and Services (Dastur va xizmatlar)** (XP) da Epson dasturiy ta’minoti belgilanganligini tasdiqlang, keyin **OK** ni bosing.

Boshqa muammolar

Mahsulot tarmoq xizmatlarini sozlay olmayapti yoki to‘satdan tarmoq xizmatlarini ishlata olmay qoldi

❏ **Mahsulotning negiz sertifikati (root certificate) muddati tugadimi?**
Mahsulotning negiz sertifikati (root certificate) muddati tugagan bo‘lsa, Web Config yoki mahsulot ekranida uni yangilash kerakligini bildiruvchi xabar beriladi. Mahsulot bilan bitta tarmoqdagi kompyuter yoki smartfondan mahsulotning Web Config sahifasiga brauzer bilan kiring, keyin negiz sertifikatini yangilang.
Mahsulotning Web Config sahifasiga kirish tafsilotlari uchun uning foydalanuvchi qo‘llanmasini ko‘ring.

Tarmoq xususiyatlari uchun mualliflik huquqlari va litsenziyalar

Mualliflik huquqlari, savdo belgilari va litsenziyalar

Microsoft®, Windows®, va Windows Vista® belgilari Microsoft korporatsiyasining savdo belgilaridir.

Apple, Mac OS, OS X, Bonjour va Macintosh Apple Inc. kompaniyasining savdo belgilari bo‘lib, AQSH va boshqa mamlakatlarda qayd qilingan. AirPrint Apple Inc. kompaniyasining savdo belgisidir.

Android™ va Google Cloud Print™ Google Inc. kompaniyasining savdo belgilaridir.

Wi-Fi®, Wi-Fi Alliance®, va Wi-Fi Protected Access® (WPA) Wi-Fi Alliance’ning savdo belgilaridir. Wi-Fi Direct™, Wi-Fi Protected Setup™ va WPA2™ Wi-Fi Alliance’ning savdo belgilaridir.

Copyright 2014 Seiko Epson Corporation. Barcha huquqlar himoyalangan.

Info-ZIP copyright and license

This is version 2007-Mar-4 of the Info-ZIP license. The definitive version of this document should be available at ftp://ftp.info-zip.org/pub/infozip/license.html indefinitely and a copy at http://www.info-zip.org/pub/infozip/license.html.

Copyright © 1990-2007 Info-ZIP. All rights reserved.

For the purposes of this copyright and license, “Info-ZIP” is defined as the following set of individuals:

> Mark Adler, John Bush, Karl Davis, Harald Denker, Jean-Michel Dubois, Jean-loup Gailly, Hunter Goatley, Ed Gordon, Ian Gorman, Chris Herborth, Dirk Haase, Greg Hartwig, Robert Heath, Jonathan Hudson, Paul Kienitz, David Kirschbaum, Johnny Lee, Onno van der Linden, Igor Mandrichenko, Steve P. Miller, Sergio Monesi, Keith Owens, George Petrov, Greg Roelofs, Kai Uwe Rommel, Steve Salisbury, Dave Smith, Steven M. Schweda, Christian Spieler, Cosmin Truta, Antoine Verheijen, Paul von Behren, Rich Wales, Mike White.

This software is provided "as is," without warranty of any kind, express or implied. In no event shall Info-ZIP or its contributors be held liable for any direct, indirect, incidental, special or consequential damages arising out of the use of or inability to use this software.

Permission is granted to anyone to use this software for any purpose, including commercial applications, and to alter it and redistribute it freely, subject to the above disclaimer and the following restrictions:

> 1. Redistributions of source code (in whole or in part) must retain the above copyright notice, definition, disclaimer, and this list of conditions.

2. Redistributions in binary form (compiled executables and libraries) must reproduce the above copyright notice, definition, disclaimer, and this list of conditions in documentation and/or other materials provided with the distribution. The sole exception to this condition is redistribution of a standard UnZipSFX binary (including SFXWiz) as part of a self-extracting archive; that is permitted without inclusion of this license, as long as the normal SFX banner has not been removed from the binary or disabled.

3. Altered versions--including, but not limited to, ports to new operating systems, existing ports with new graphical interfaces, versions with modified or added functionality, and dynamic, shared, or static library versions not from Info-ZIP--must be plainly marked as such and must not be misrepresented as being the original source or, if binaries, compiled from the original source. Such altered versions also must not be misrepresented as being Info-ZIP releases--including, but not limited to, labeling of the altered versions with the names "Info-ZIP" (or any variation thereof, including, but not limited to, different capitalizations), "Pocket UnZip," "WiZ" or "MacZip" without the explicit permission of Info-ZIP. Such altered versions are further prohibited from misrepresentative use of the Zip-Bugs or Info-ZIP e-mail addresses or the Info-ZIP URL(s), such as to imply Info-ZIP will provide support for the altered versions.

4. Info-ZIP retains the right to use the names
"Info-ZIP," "Zip," "UnZip," "UnZipSFX," "WiZ," "Pocket UnZip," "Pocket Zip," and "MacZip" for its own source and binary releases.

OCHIQ KODLI DASTURIY TA’MINOT LITSENZIYASI

Bu printer ochiq kodli dasturlarni o‘z ichiga oladi. Ochiq kodli dasturiy ta’minot haqida batafsil ma’lumot mahsulot diskining "Manual" jildida berilgan.